



## BO'LAJAK KIMYO O'QITUVCHILARINING KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KASBIY TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Sodiqov Behzod Baxriddin o'g'li

*Buxoro davlat pedagogika instituti (BuxDPI)*

*"Kimyo" kafedrasi o'qituvchisi*

Yusupova Dinara Furqat qizi

*Buxoro davlat pedagogika instituti (BuxDPI)*

*Kimyo ta'lim yo'nalishi, 4-bosqich talabasi*

Kreativlik ta'lim jarayonini tashkillashtirishni o'zida mujassamlashtirib, kreativ ta'lim jarayonini qurish, ta'lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko'nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Kreativlik – shaxsning yaratuvchanlik, ijodkorlik xislatlarlari bilan bog'liq ko'nikmalar majmui sifatida namoyon bo'ladi. Kreativlik o'z ichiga muammolarga nisbatan yuqori darajadagi sezgirlik, intiutsiya, natijalarni oldindan ko'ra bilish, fantaziya, tadqiqotchilik va refleksiyaning qamrab oladi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi[2;].

Nazariy va amaliy mashg'ulotning tizimlashtirilishi o'quv materialining mazmunini butunligicha qamrab olishni, bayon etishini, mustahkamlashini va mavzularning ketma-ketligiga mos holda o'rganilishini hamda o'zlashtirish darajasini nazorat qilishni ta'minlaydi. Kimyo fanini o'rganishda, ta'lim uslublarini tanlashda o'quvchilar va o'qituvchilar faolligini, mustaqilligini, fikrlashning tezkorligini ta'minlashga mos keladigan uslublarni tanlashda alohida e'tibor beriladi. O'rganish shunday jarayonki, unda o'quvchi tabiiy atrof-muhit bilan munosabatlari va bunda hosil bo'lgan tajriba orqali hulqini o'zgartiradi. O'rganish orqali o'quvchi o'z fikriga, bilim, ko'nikma va mahoratga erishadi.

**Amaliy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kimyo fanini o'rganishga quyidagi dastlabki vaziyatlar ham ta'sir qiladi:**

1. hatti-harakatlarga reaksiya ta'siri, ya'ni biror harakat bajarilishining murakkabligi;
2. o'rganishga ishtiyoq, ya'ni aniq tasavvur qilingan o'quv maqsadlariga erishishga intilish;
3. tashqi turtkilar, ya'ni qiziqishi bo'lmagan o'quvchiga qiziqishini uyg'otish maqsadida o'qituvchi turtki beradi.

Ixtisoslik fanlarni o'rganishning turli dastlabki shartlaridan, ya'ni oldin egallangan bilimlar, o'rganishda ishtiyoq, o'rganish va fikrlashning shaxsiy qobiliyatlari asosida o'rganilayotgan bilimlar miqdori va sifatida ega, eslab qolish qobiliyatiga, o'rganish vaqtida ta'sir qiladigan ko'plab omillar mavjud[2;36-39].



1-rasm.O'rganishga ta'sir etuvchi omillar.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

3. O'qituvchilarning pedagogik mahorati tajribasida ta'lim metodlarini samaradorligini oshirish yo'llari. Qarshi 2022 A.A.Jumayev,D.P.Mirzoyev,I.N.Karimov.

4. B.B.Sodiqov, D.M.Murodov. "Kimyo fanini o'qitishda integrativ va kreativ yondashuv" //monografiya// Buxoro: "Sharq" nashriyoti,.2024.112 bet.